



THE DISTINCTIVE FEATURES OF THE GOVERNANCE DURING THE CALIPHATE OF UTHMAN IBN AFFAN (MAY ALLAH BE PLEASED WITH HIM)

Navola Sultanova

Independent Researcher

Center for Islamic Civilization in Uzbekistan

E-mail: sultanovanavola505@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Islamic civilization, Uthman ibn Affan, Qur'an codification, Bayt al-Mal, state governance, social justice, naval fleet, fitna, Rashidun Caliphs, political reforms.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the political, economic, and administrative aspects of the governance of the third Rightly Guided Caliph – Uthman ibn Affan (may Allah be pleased with him). It highlights the Caliph's initiatives such as the unification of the Qur'an into an official standardized version, the expansion of the Bayt al-Mal (state treasury) system, the improvement of provincial administration, the establishment of a naval fleet, and efforts to ensure social justice. The article also discusses, based on historical sources, the political conflicts and internal strife (fitna) that arose during his rule and their underlying causes. The study emphasizes that Caliph Uthman's reforms had a profound influence on the subsequent stages of Islamic civilization, and that his contributions in upholding justice, generosity, and the preservation of the Qur'an hold a significant place in the history of Muslim statehood.

USMON IBN AFFON RODIYOLLOHU ANHU DAVRI BOSHQARUVINING UZIGA HOS HUSUSIYATLARI

Navola Sultanova

Mustaqil izlanuvchi

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi

E-mail: sultanovanavola505@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Islom sivilizatsiyasi, Usmon ibn Affon, Qurʼon nusxasi, Baytul-mal, davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat, dengiz floti, fitna, roshid xalifalar, siyosiy islohotlar.

Annatatsiya: Ushbu maqolada uchinchi roshid xalifa – Usmon ibn Affon (r.a.) boshqaruvining siyosiy, iqtisodiy va maʼmuriy jihatlarini tahlil qilingan. Maqolada xalifaning Qurʼonni yagona rasmiy nusxaga keltirish tashabbusi, Baytul-mol tizimini kengaytirish, viloyat boshqaruvini takomillashtirish, dengiz floti tashkil etilishi va ijtimoiy adolatni taʼminlash yoʻlidagi faoliyati yoritilgan. Shuningdek, Usmon (r.a.) davrida yuzaga kelgan siyosiy ixtiloflar, fitnalar va ularning sabablariga tarixiy manbalar asosida izoh berilgan. Tadqiqotda xalifaning islohotlari Islom sivilizatsiyasining keyingi rivojlanish bosqichlariga katta taʼsir koʻrsatgani, uning adolat, saxovat va Qurʼonni saqlash yoʻlidagi xizmatlari musulmon davlatchiligi tarixida muhim oʻrin tutgani taʼkidlanadi.

**ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ В ПЕРИОД ХАЛИФАТА
УСМАНА ИБН АФФАНА (ДА БУДЕТ ДОВОЛЕН ИМ АЛЛАХ)**

Навола Султанова

Независимый исследователь

Центр исламской цивилизации в Узбекистане

E-mail: sultanovanavola505@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исламская цивилизация, Усман ибн Аффан, список Корана, Байтуль-маль, государственное управление, социальная справедливость, военно-морской флот, фитна, праведные халифы, политические реформы.

Аннотация: В данной статье рассматриваются политические, экономические и административные аспекты управления третьего праведного халифа – Усмана ибн Аффана (да будет доволен им Аллах). Освещаются инициативы халифа по приведению Корана к единому официальному списку, расширению системы Байтуль-мал (государственной казны), совершенствованию провинциального управления, созданию военно-морского флота и обеспечению социальной справедливости. Также на основе исторических источников анализируются политические разногласия и смуты (фитна), возникшие в его правление, и причины их появления. В исследовании подчеркивается, что реформы халифа Усмана оказали значительное влияние на последующие этапы развития исламской

цивилизации, а его деятельность по утверждению справедливости, щедрости и сохранению Корана занимает важное место в истории мусульманской государственности.

Kirish. Hazrati Usmon ibn Affon rodiyollohu anhu uchinchi roshid xalifa. Uning ismi Usmon ibn Affon ibn Abu al-Os ibn Umayya ibn Abdul Shams ibn Abd Manof ibn Qusayy ibn Qilob al-Umaviy al-Qurashiy edi. U bilan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning umumiy ajdodlari Abdul Manof edi. Onasi Arva binti Qurayz ibn Rabi'a ibn Abd Shams ibn Abd Manof ibn Qusayy edi. Uning onasi Abdulmuttalibning qizi va Abdullohning singlisi, Rasulullohning otasi Ummu Hakim al-Bayda edi. Az-Zubayr ibn Bakkar ularning egizak ekanliklarini aytdilar. Shunday qilib, Usmon Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning xolalarining qizlarining o'g'li edi. Shu bilan birga, Payg'ambar otasining xolasining o'g'li edi. Usmon roziyallohu anhuning onasi islom dinini qabul qilib, hukmronligi davrida vafot etgan va u ham uning jasadini qabrga olib borganlar qatorida edi. Usmonning otasi johiliyat davrida vafot etgan. Johiliyat davrida Usmon roziyallohu anhu Abu Amr ismini qo'ygan, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qizlari Ruqayyadan keyin Abdulloh ismli o'g'il tug'gandan so'ng Usmon Abu Abdulloh nomi bilan mashhur bo'lgan.[1]

Tadqiqot usullari. Ushbu maqolada Usmon ibn Affon (r.a.)ning hayoti, siyosiy faoliyati, xalifalik davrida amalga oshirilgan islohotlar hamda fitna voqealarining ijtimoiy-siyosiy ildizlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

1. Tarixiy–taqqosiy metod

Usmon ibn Affon (r.a.)ning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar ilk islom manbalari – at-Tabariy, Ibn Sa'd, Ibn Kasir, Balazuriy va boshqa tarixchilarning rivoyatlari bilan qiyoslab o'rganildi. Turli manbalarda mavjud tafovutlar aniqlanib, ular tarixiy kontekstda baholandi.

2. Manbashunoslik (source analysis) metodi

Asosiy tarixiy manbalar, hadis to'plamlari, sahoba tarjimai holiga bag'ishlangan asarlar va klassik fiqhiy manbalar tahlil qilindi. Har bir voqea yoki islohot manbalaridagi isnod zanjiri, rivoyat sifati va tarixiy ishonchlilik mezonlari asosida o'rganildi.

3. Biografik (tarjimai hol) tahlil

Usmon ibn Affon (r.a.)ning shaxsiy fazilatlarini, sahobalar orasidagi mavqei, iqtisodiy faoliyati, elchilik vazifalari, g'azotlarda ishtiroki va xalifalik davridagi siyosiy qarorlar biografik yondashuv asosida tadqiq qilindi.

4. Siyosiy-tahliliy metod

Hudaybiya sulhi, Tabuk g'azoti, davlat boshqaruvi islohotlari, Qur'onni rasmiy mushafga keltirish jarayoni va fitna davrining siyosiy sharoitlari tahlil qilindi. Siyosiy qarorlar sabab–oqibat munosabatida ko'rib chiqildi.

5. Ijtimoiy-tarixiy metod

Xalifalik davrida yuzaga kelgan ijtimoiy tabaqalanish, iqtisodiy tengsizlik, baytul-mal tizimidagi o'zgarishlar, viloyatlar boshqaruvidagi siyosiy bosimlar va norozilik harakatlari ijtimoiy tarix kontekstida baholandi.

6. Matnshunoslik va rivoyat tanqidi usuli

Fitna davri voqealariga oid turli rivoyatlarda uchraydigan tafovutlar, soxta xabarlar, noto'g'ri nisbatlar, siyosiy manipulyatsiya holatlari (masalan, soxta maktub voqeasi) matnshunoslik tamoyillari asosida tekshirildi.

7. Qiyosiy-siyosiy yondashuv

Usmon (r.a.), Abu Bakr (r.a.) va Umar (r.a.) davridagi boshqaruv islohotlari qiyoslanib, ularning samaradorligi va ijtimoiy reaksiyalari tahlil qilindi. Bu metod orqali har bir davr siyosiy modelining farqlari aniqlashtirildi.

8. Analitik–sintez metodi

Turli manbalardan olingan ma'lumotlar bir-biriga bog'lab, ularning umumiy xulosasi chiqarildi. Fitna voqealarining siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy ildizlari sintetik yondashuv orqali umumlashtirildi.

Natijalar. U Jalil al-Quraysh – Quraysh qabilasining nufuzli kishisi edi. Milodiy 576-yil Makkada tug'ilgan. Milodiy 656-yil Madinada vafot etgan. Usmon r.a Qurayshning boy, savdogar va hurmatli oilasida tug'ilgan. U yoshlikdan halol savdo, odob va insonparvarlik bilan tanilgan. U Abu Bakr as-Siddiq r.ahning da'vati orqali islomni qabul qilgan. Birinchi sakkiz musulmondan biridir. U Rasululloh s.a.vasallamning ikki qiziga – Ruqayya va keyin Umm Qulsumga uylangan. Shu sababli u “zun-nurayn” – ikki nur egasi deb atalgan. Ruqayya vafotidan keyin Rasululloh s.a.vasallam: “Agar menda yana qiz bo'lganida, uni ham Usmongga berardim,” – deganlar. Makkada dastlabki musulmonlar zulm ko'rgan paytda, u o'z boyligi bilan musulmonlarga yordam berdi. U islom tarixida birinchi hijrat – Habashistonga ko'chishda qatnashgan. Madinada Badr, Uhud, Hunayn kabi ko'plab janglarda qatnashdi. Faqatgina Badr jangida ishtirok etmagan. Bu payg'ambar s.a.vasallamning amri bilan bo'lgan. Sababi u Payg'ambar s.a.vasallamning qizi Ruqayya r.a ya'ni, o'z ayoli og'ir kasal bo'lgani uchun Madinada qolgan. Payg'ambar (s.a.v.) unga: “Sen jangda qatnashgandeksan, senga Badrning savobi yozildi” deb marhamat qilganlar [2].

Usmon (r.a.) Uhud jangida qatnashgan, dastlabki safda bo'lgan. Bu jangda musulmonlar orqaga chekindi, shu paytda Usmon ham jarohat olib chekinuvchilar orasida qolgan. Rasululloh s.a.v unga tanbeh bermagan, balki: "U Alloh va Rasuli uchun chiqdi." – deganlar [3].

Hudaybiya sulhi hijriy 6-yil milodiy 628-yil bo'lib o'tgan. Rasululloh s.a.v sahobalar bilan umra qilish niyatida Makkaga yo'l oldilar. Quraysh mushrikleri ularni Makkaga kiritmadi. Shunda musulmonlar Hudaybiya degan joyda to'xtashdi – bu joy Makka bilan Madina o'rtasidagi chegaraga yaqin. Sulh (tinchlik shartnomasi) tuzish uchun Payg'ambar s.a.v elchi yuborishga qaror qildilar. Nima uchun aynan Usmon ibn Affon (r.a.) tanlandi? Payg'ambar s.a.vasallam: "Kimni Qurayshga elchi yuboray?" – deganlarida, sahobalar: "Usmon ibn Affon (r.a.)ni yuboring, chunki u Quraysh orasida hurmatli, obro'li va xotini orqali ularning qarindoshi," – deyishdi. Usmon (r.a.) Qurayshning Banu Umayya urug'idan bo'lgani uchun diplomatik ishonchga ega edi.[4]

Rasululloh s.a.v Usmon r.anhuni quyidagi topshiriq bilan yubordilar: "Qurayshga bor va ularga ayt: biz jang uchun emas, faqat umra uchun keldik. Agar xohlashsa, tinchlikka erishamiz." [5]

Usmon (r.a.) Makkaga kirib Quraysh boshliqlari Abu Sufyon va boshqalar bilan uchrashdi. Ularga musulmonlarning niyatini tushuntirdi. Payg'ambar s.a.v nomidan tinchlik taklifini yetkazdi. Usmon (r.a.) Makkada uzoq qolib ketdi. Shu payt, musulmonlar orasida "Usmonni Qurayshlar o'ldiribdi" degan mish-mish tarqaldi. Payg'ambar s.a.v bu xabarni eshitgach, "Bay'at ar-Ridwān"ni e'lon qildilar: "Biz Usmonning o'limi uchun qasos olishga bay'at qilamiz!" Barcha sahobalar daraxt ostida bay'at qildilar. Payg'ambar s.a.v o'z o'ng qo'lini chap qo'l ustiga qo'yib, dedilar: "Bu Usmonning o'rniga mening qo'lim" [6].

Qurayshlar keyin Suhayl ibn Amr boshchiligida muzokara uchun chiqishdi. Usmon (r.a.) muzokara paytida Rasululloh s.a.vasallamga xabar yetkazib turdi. Natijada, Hudaybiya sulhi imzolandi – bu Islom uchun siyosiy burilish nuqtasi bo'ldi. Payg'ambar s.a.v Usmon (r.a.)ning jasoratini qadrlab dedilar: "Allohim, Usmonni O'zing himoya qilgin, chunki u Sening yo'lingda chiqdi." [7]

Usmon (r.a.) Xaybar g'azoti, Hunayn, Toif va boshqa g'azotlarda qatnashgan. Xaybar jangida musulmonlar g'alaba qozonganidan so'ng, Usmon (r.a.) moliyaviy jihatdan qo'shinlarni ta'minlashda faol qatnashgan. U ko'p miqdorda xurmo, ot, qurol va mol-mulk bergan.[8]

Tabuk g'azoti hijriy 9-yilda bo'lib o'tgan. Bu g'azotda Usmon r.a eng katta moliyaviy yordam bergan sahobiy bo'lgan. Rasululloh s.a.v "urush uchun kim sadaqa qiladi?" deganlarida, Usmon r.a : "Men 300 tuya, keyin 1000 dinor keltirdim." – degan. Payg'ambar s.a.v : "Allohim! Bugundan so'ng Usmon nima qilsa ham unga zarar yetkazma" deb duo qilganlar.[9]

Hazrati Usmon ibn Affon r.a.milodiy 644–656-yillar xalifalik qilganlar. Islom tarixidagi uchinchi xalifa bo'lib, u davr musulmonlar davlatining kengayishi, iqtisodiy yuksalishi, va bir

vaqtning o'zida ichki siyosiy ixtiloflarning boshlangan davri siftida tanilgan. Hazrati Usmon (r.a.) xalifalikni Umar ibn Xattob r.a. hududan keyin qabul qildi. U paytda islom davlati Sharqda Hindiston chegaralariga, G'arbda Shimoliy Afrikaga, Shimolda Kavkazgacha kengaygan edi. Bu ulkan hududni boshqarish uchun yaxshi tashkil etilgan ma'muriy tizim zarur edi. Usmon (r.a.) avvalo tinchlik, barqarorlik va iqtisodiy rivojga urg'u berdi.

Usmon r.a. boshqaruvning asosiy xususiyatlari shundan iboratki, u Qur'onni bir nusxaga keltirish bo'ldi. Eng muhim islohotlardan biri – Qur'onni yagona rasmiy nusxada to'plash edi. Turli hududlarda til lahjalari farqlari sabab ayrim o'qish uslublarida tafovutlar paydo bo'layotgandi. Usmon r.a. Zayd ibn Sobit r.a. boshchiligidagi komissiya tuzdi va Qur'onning yagona nusxasi tayyorlandi. Shu mushaf ko'paytirilib, Makka, Kufa, Basra, Shom, Misr, Madina kabi markazlarga yuborildi. Bu harakat Qur'on matnining bir xilligi va sofligini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Davlat boshqaruvi va ma'muriy islohotlarda Usmon r.a. viloyatlarni saqlab qoldi, ammo ularning boshliqlarini almashtirdi. Bu ayrim noroziliklarga sabab bo'ldi. U o'ziga yaqin bo'lgan, ammo tajribali va dindor kishilarni hokim etib tayinladi. Masalan, Shomda Muoviya ibn Abu Sufyon hokimlikda saqlab qoldi va bu bilan markaziy boshqaruvni mustahkamladi, bu bilan xalifalikda siyosiy birlik saqlanib qoldi. Umar (r.a.) davrida asos solingan Baytul-mal (xazina) tizimini kengaytirdi. Davlat daromadlari ko'paygani sabab xalq farovonligi oshdi. Harbiylar, nogironlar va faqirlar uchun maosh tizimini davom ettirdi. Savdo-sotiq, kemachilik, soliq yig'ish tartiblari takomillashtirildi. Usmon r.a. anhu davrida musulmonlar birinchi marta dengizda jang qilish imkoniga ega bo'ldilar. Muoviya ibn Abu Sufyon tashabbusi bilan Islom floti tuzildi. 655-yilda Zotus-Savari ya'ni Kipr yaqinidagi dengiz jangida musulmonlar Bizans flotini mag'lub etishdi. Bu hodisa Islom dengiz kuchlarining tug'ilishi deb qaraladi.

Masjid al-Harom (Ka'ba atrofi) kengaytirildi. Masjid an-Nabaviy (Madina) ham kengaytirilib, go'zal bezaklar bilan ta'mirlandi. Yo'llar, quduqlar, sug'orish tizimlari qurilishi davom etdi. Usmon (r.a.) xalifaligining ikkinchi yarmida ayrim siyosiy qarorlari sabab ichki noroziliklar paydo bo'ldi. U ayrim viloyatlarga qarindoshlarini hokim etib tayinlagani uchun nepotizm (qarindoshparastlik)da ayblandi. Usmon ibn Affon r.a. xalqning kambag'al toifasi manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyat ixtiyorida bo'ladigan qo'riqxonalariga ko'plab yer ajratishni yo'lga qo'ydilar. Shu tariqa yerlarga boy badavlat kishilarga ega chiqib olishlari tartibga solindi.[10]

Usmon ibn Affon r.a. davrlarigacha muazzinlarga maosh belgilanmagan edi. O'sha paytdagi xayotning soddaligidan, muazzinlarga ajratilgan ishning ozligidan bunga ehtiyoj ham yo'q edi. Usmon r.a. davriga kelib, masjidlar kattalashdi, jamoatlar soni nihoyatda ortdi. Binobarin, muazzinlarning xizmati ham ko'paydi. Endi muazzinlar ajralib chiqib, muazzinlik qilishlari lozim

bo'lib qoldi. Faqat muazzinlik bilan mashg'ul bo'lgan odam esa maosh bilan ta'minlanishi zarur edi. Shuning uchun hazrati Usmon r.a keng islom jamiyatining barcha joylarida muazzinlarga maosh berishni joriy qildilar [11].

Usmon ibn Affon r.a davrlariga kelib, barcha sharoitlar o'zgargan. O'zgarganda ham salbiy ma'noda o'zgargan edi. "Tirik Qur'on" bo'lgan ulug' sahobiyning ko'pchiligi shahid bo'lgan, vafot etgan va turli yurtlarga tarqalib ketgan edilar. Jamiyatda turli tuman xalq, millat va elatlarning turli odamlari ham ko'paygan edi. Ularning ichida odoblilari ham, boshqachalari ham bor edi. Buning ustiga, musulmon bo'lmaganlar ham, Islomni g'arazgo'ylik bilan qabul qilganlari ham oz emasdi. Bu va shunga o'xshash omillar mirshablikni joriy etishni talab qilar edi. Shuning uchun hazrati Usmon r.a mirshablikni yo'lga qo'yidilar.[12]

Islom olamidagi fitnaning uchi halifa Umar ibn Hattob r.anhuga g'arazgo'y kuchlar tomonidan suyuqasd uyushtirilib, u kishining o'ldirilishlaridan boshlangan edi. Hazrati Umar r.anhuning olib borayotgan Muzaffar siyosatlari ko'pchilik dushmanlarning "jigarini yeb borayotgan" edi. Ular Islomning butun yer yuzi bo'ylab yashin tezligida tarqalib borayotganini mutlaqo ko'ra olmas edilar. Huddi ana shu kuchlar hazrati Umarning vafotlaridan keyin Rum va Fors tomonlarda qurolli hurujlar qilib, Islom jamiyatini qaramog'idan chiqib, eski tuzumlarini qayta o'rnatmoqchi bo'lishdi. Ammo Usmon ibn Affon r.a bu hurujlarni o'z vaqtida bartaraf qildilar. Harbiy tomondan kuchi yetmagan g'animlar ichki tomondan turli fitnalar chiqarishga o'tishdi. Ular o'z maqsadlari yo'lida turli omillarni ishga solishdi [13].

Usmon (r.a.) xalifaligining dastlabki sakkiz yili islom dunyosi uchun taraqqiyot va tinchlik davri bo'ldi. Ammo so'nggi yillarda siyosiy va ijtimoiy bosim kuchaydi. Usmon (r.a.) viloyat hokimlarining ayrimlarini almashtirdi, ularning ko'pchiligi Umaviylar urug'idan bo'lgan qarindoshlari edi (masalan, Muoviya ibn Abu Sufyon – Shomda). Bu tayinotlar aslida ishonchli va tajribali boshqaruvchilarni tanlash maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa-da, ba'zi kishilar buni qarindoshparastlik (nepotizm) sifatida baholadi. Shu sababli, Misr, Kufa, Basra kabi yirik viloyatlarda noroziliklar kuchaydi. Hijriy 30–35-yillardagi Usmon ibn Affon r.a xalifaligining so'nggi besh yilligida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy bosimlar kuchayib, ichki fitna (nizo) yuzaga keldi. Bu hodisa keyinchalik islom siyosiy tafakkuriga, firqalar shia, xavorij va boshqalar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.[14]

Fitnaning sabablari ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik edi. Umar (r.a.) davrida davlat kengaygan edi, lekin Usmon davrida baytul-maldagi boyliklar ayrim kishilarga ko'proq ajratila boshlandi. Yangi musulmonlar (ajamlar), ayniqsa Iroq va Misrda, arab zodagonlarining imtiyozlaridan norozi bo'ldilar. Al-Tabari yozadi: "Baytul-mal adolatli bo'lmay qoldi, xalq rahbarlardan adolat kutdi." [15] ikkinchi sabab, qarindoshlik siyosati (Nepotizm). Usmon (r.a.)

ayrim Umaviy naslidan bo'lgan qarindoshlarini hokimlikka tayinladi. Masalan, Marvon ibn Hakam, Valid ibn Uqba. Bu siyosat, ayniqsa, Misr, Kufa va Basrada xalq noroziligiga sabab bo'ldi.

Ibn Sa'd yozadi: "Bu tayinlovlar xalq orasida 'qarindoshlik ustuvorligi' deb talqin qilindi" [16].

Ba'zi tarixchilar bu fitnani Abdulloh ibn Saba Yamanlik yahudiy boshchiligidagi siyosiy harakatlar bilan bog'laydi. U xalifaga qarshi da'vat yuritib, "Ali asl xalifa bo'lishi kerak edi" degan g'oyani yoydi [17]. Keying sabab axborot manipulyatsiyasi edi. Viloyatlar o'rtasida noto'g'ri xabarlar tarqatildi; xalifa nomidan soxta maktublar yozildi. Bu xalq orasida ishonchsizlik va g'azabni kuchaytirdi [18].

Fitna Misr, Kufa va Basradan norozilar Madinaga yurishdan boshladi. 35-hijriy yil (656 m.)da turli viloyatlardan norozilar Madinaga kelib, xalifadan iste'fo talab qildilar. Usmon (r.a.) ularga sabr va nasihat bilan murojaat qildi, lekin soxta maktub voqeasi (u xalifaning imzosi bilan yozilgan, lekin u xabarni inkor etgan) fitnani kuchaytirdi [19].

Fitnachilar Usmon ibn Affonning uyini qamal qildilar. Sahobalar Ali, Talha, Zubayr, Hasan va Husayn r.a. uni himoya qilishga urindilar, ammo xalifa qon to'kilmasin, deb qarshilik ko'rsatmaslikni buyurdi [20]. Usmonning shahid qilinishi natijasida musulmonlar Ali ibn Abu Tolibni xalifa qilib sayladilar. Ammo bu saylovni ba'zilar tan olmadi. Ayniqsa, Muoviya ibn Abu Sufyon. Shu sababdan milodiy 657-yilda siffin jangi va xavorijlar chiqishi sodir bo'ldi [21]. Bu fitna natijasida musulmonlar orasida "hokimiyat, adolat, shura, fitna va qatl" masalalari bo'yicha chuqur fikrlar paydo bo'ldi. Shia, Xavorij va Sunniy yo'nalishlarining ildizlari ham shu davrga borib taqaladi [22].

Hijriy 30–35-yillardagi fitna dastlab ijtimoiy adolatsizlik, qarindoshlik siyosati va noto'g'ri axborot tufayli boshlandi. Halifa Usmon (r.a.)ning shahid qilinishi bilan yakun topdi. Keyinchalik islom tarixida siyosiy firqalar, nizolar va fuqarolik urushlari davrini boshlab berdi. Bu hodisa musulmon tarixida "al-Fitnah al-Kubra" – "katta sinov" deb nom olgan, chunki u ummatni birlikdan bo'linishga olib keldi. Ba'zi manbalarda aytilishicha, Yamanlik yahudiy Abdulloh ibn Saba ismli shaxs musulmonlar orasida fitna va nizo tarqatgan. U xalifani tanqid qilib, xalifalikni Ali ibn Abu Tolib r.a.huga o'tishi kerak, degan g'oyani yoygan. Bu tashviqotlar natijasida Misr, Kufa va Basradan norozilar guruhlar paydo bo'ldi.

656-yilda Misr, Kufa va Basradan kelgan uchta katta isyonchi guruh Madinaga yo'l oldi. Ular xalifadan ayrim hokimlarni lavozimidan olishni talab qilishdi. Usmon (r.a.) ular bilan tinch muzokara yo'lini tanladi va ularga rahm-shafqat bilan muomala qildi. Muzokaralar vaqtida xalifalik muhriga soxta xat yozilgan degan mish-mishlar tarqaldi. Bu xat isyonchilarni qaytarish uchun yozilgan degan uydirma edi. Shu voqea isyonchilarning g'azabini qo'zg'atdi va ular Madinaga bostirib kirishdi. 656-yilning Zulhijja oyida isyonchilar xalifaning uyini o'rab olishdi.

U uch kun davomida suv va oziq-ovqatsiz holda uyida qamalda qoldi. Sahobalar jumladan Ali, Tolha, Zubayr r. anhular uni himoya qilmoqchi bo'lishdi, lekin u: "men qon to'kilishini xohlamayman," – deb, ularni jang qilmaslikka undadi. Nihoyat, u Qur'on o'qiyotgan paytida, ba'zi rivoyatlarga ko'ra, "Inna Allaha yakfikaahum" oyatini o'qiyotganida ishyonchilar tomonidan pichoq bilan o'ldirildi. Qon Qur'on sahifalariga to'kilgan – bu manzara tarixda "Qonli Mushaf" deb nom olgan. Usmon r. anhuning jasadini fitnadan qo'rqilganidan kechasi yashirincha dafn etishdi. U Madinadagi Jannatul Boqiy qabristonining Hashkawkab nomli joyiga qo'yilgan. Hozirgi Boqiyning kengaygan qismida. Dafn marosimida bir necha yaqin sahobalar, jumladan Ali ibn Abu Tolib r. a ham qatnashgan [23].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Hazrati Usmon ibn Affon (r. a.) davrida islom davlati nafaqat kengayib, balki diniy, siyosiy va harbiy jihatdan eng qudratli imperiyalardan biriga aylandi.

Usmon ibn Affon (r. a.) davridagi siyosiy voqealar islom tarixining eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lib, ularni bir tomonlama talqin qilish ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri emas. Mazkur tadqiqot ularning tub sabablarini aniqlash, ishonchli manbalarni ajratish va voqealarning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini ochib berishga xizmat qildi. O'rganilgan natijalar dastlabki islom jamiyatida siyosiy barqarorlikni ta'minlashning murakkab mexanizmlarini anglashga va sahobalar davrining jarayonlarini ob'ektiv tarixiy yondashuv asosida qayta baholashga ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Tabariy, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir. (1967). Tarix ar-rusul va al-muluk (Jild 4). Qohira: Dar al-Ma'arif.
2. Al-Tabariy, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir. (1999). The history of al-Tabari (Vol. 5: The Sasanids, the Byzantines, the Lakhmids, and Yemen). Leyden: Brill.
3. Ali, Muhammad as-Sallabiy. (2012). Usmon ibn Affon. Uchinchi roshid xalifa (Rus tilidan tarj. Ye. Sorokoumova). Moskva: Umma.
4. As-Sallabiy, Muhammad. (2006). Al-Khulafa' ar-Roshidun (Jild 1). Bayrut: Dar al-Ma'rifah.
5. As-Sallabiy, Muhammad. (2003). Usmon ibn Affon – Zu'n-Nurayn (Jild 1). Bayrut: Dar al-Ma'rifah.
6. Ahmad ibn Hanbal. (n.d.). Al-Musnad (Jild 1). Qohira: Dar al-Hadith.
7. At-Tirmiziy. (n.d.). As-Sunan (Hadis 3701). Bayrut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
8. Hodgson, Marshall G. S. (1974). Islom sivilizatsiyasi: Vijdon va tarix (Jild 1). Chikago: University of Chicago Press.
9. Ibn Hajar al-'Asqalani. (n.d.). Al-Isoba fi tamyiz as-sahoba. Bayrut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.

10. Ibn Hishom, Abu Muhammad ‘Abd al-Malik. (1990). As-Siyrat an-nabawiyya (Jild 3). Bayrut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyyah.
11. Ibn Kasir, Ismoil ibn Umar. (1997). Al-Bidayat va an-nihaya (Jild 7). Ar-Riyod: Dar as-Salam.
12. Ibn Sa‘d, Muhammad. (n.d.). At-Tabaqot al-Kubro (Jild 3). Bayrut: Dar Soder.
13. Muslim, Ibn al-Hajjaj. (n.d.). As-Sahih Muslim (Hadis 1856). Qohira: Dar al-Hadith.
14. Al-Buxoriy. (n.d.). As-Sahih al-Buxoriy (Hadis 3699). Qohira: Dar al-Hadith.
15. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2018). Islom tarixi (Juz 1). Toshkent: Hilol Nashr.
16. Watt, W. Montgomery. (1998). Islom tafakkurining shakllanish davri. Edinburg: Edinburgh University Press.